




## A LITERARY ANALYSIS OF KHALID NAVIS'S SHORT STORY "RED AND WHITE"

**Toxirbek Kenjaboyev**

4th-year student, Dari-English group  
School of Iranian and Afghan Studies  
Tashkent State University of Oriental Studies

**N. Kabirova**

Associate Professor, PhD,  
School of Iranian and Afghan Studies,  
Tashkent State University of Oriental Studies  
Tashkent, Uzbekistan

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** artistic imagery, realism, politics,  
literary symbol, storytelling, proverb.

**Received:** 28.04.25

**Accepted:** 10.05.25

**Published:** 14.05.25

**Abstract:** This article analyzes the works of Khalid Navis, a unique and truth-seeking writer of Afghan storytelling, with a focus on his short story "Qizil va Oq" (سرخ و سپيد) from the collection "Taqdir yo'li va qismat jarligi" (راه و چاه). The study also highlights how the story reflects different phases of Afghan society, particularly the impact of war on humanity. Through the symbol of the dove, the author portrays the pains of the people, the homeland, and the writer himself.

### XOLID NAVISONING "QIZIL VA OQ" HIKOYASINING BADIY TAHLILI

**Toxirbek Kenjaboyev**

4-kurs dariy-ingliz guruhi talabasi  
"Eronshunoslik va afg'onshunoslik" oliy maktabi  
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

**N. Kabirova**

PhD  
"Eronshunoslik va afg'onshunoslik" oliy maktabi dotsenti  
TDSHU  
Toshkent, O'zbekiston

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit soʻzlar:** badiiy tasvir, realism, siyosat, badiiy timsol, hikoyachilik va zarbulmasal.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada afgʻon hikoyachiligining betakror, haqiqatparvar adibi Xolid Naviso ijodi, xususan uning “Taqrir yoʻli va qismat jarligi” (راه و چاه) hikoyalar toʻplamiga kiritilgan “Qizil va Oq” (سرخ و سپيد) hikoyasi asosida tahlil qilingan. Bundan tashqari afgʻon jamiyatining turli bosqichlarini, xususan urush va uning insoniyatga taʼsirini koʻrsatib bera olishini ochib berilgan. Asar kabutar timsoli vositasida xalq, yurt va adibning dardlarini tasvirlab bergan.

## ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ АНАЛИЗ РАССКАЗА ХАЛИДА НАВИСА «КРАСНОЕ И БЕЛОЕ»

**Тохирбек Кенжабоев**

Студент 4 курса, дари-английская группа

Высшая школа иранистики и афганистики

Ташкентский государственный университет востоковедения

**Н. Кабирова**

Доцент, PhD,

Высшая школа иранистики и афганистики,

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** художественное изображение, реализм, политика, литературный символ, рассказ, пословица.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается творчество Халида Нависа — самобытного и правдолюбивого афганского писателя, в частности рассказ «Qizil va Oq» (سرخ و سپيد) из сборника «Taqrir yoʻli va qismat jarligi» (راه و چاه). Также раскрывается, как через данное произведение отражаются различные этапы афганского общества, особенно влияние войны на человечество. С помощью образа голубя автор передаёт страдания народа, родины и самого писателя.

Adabiyot — insoniyatning madaniy va intellektual merosi boʻlib, u zamonlar osha saqlanib, yangi avlodlarga oʻzining badiiy va maʼnaviy boyliklarini yetkazadi. Ana shunday ruhiy boyliklarni oʻqir ekanmiz, uning uchida yozilgan har bir satr, har bir soʻz sogʻlom inson yuragining eng nozik torlarini chertadi. Har millatning oʻziga xos dardi va armonlari boʻlgani barobarida, barcha yozuvchilarning oʻzigacha dunyosi va oʻsha dunyo ichra topgan haqiqatlari orqali oʻz millati dard-u armonlariga oʻsha haqiqatlar oʻlchovidan kelib chiqib yechim berishlari turgan gap. Shubhasiz, afgʻon nasrida ham millat dardi turlicha talqin bilan adabiy vakillar qalami orqali bayon etiladi. Tadqiqot materialini sifatida Xolid Navisoning “Taqrir yoʻli va qismat jarligi” (راه و چاه) hikoyalar toʻplamiga kiritilgan “Qizil va Oq” (سرخ و سپيد) hikoyasini tanlab oldik.

Xolid Naviso, Afg'onistonning taniqli zamonaviy yozuvchisi bo'lib, 1965-yilda Afg'onistonning poytaxti Kobul shahrida tug'ilgan. Uning hayoti davomida ko'plab siyosiy va ijtimoiy o'zgarishlarni ko'rgan, shu jumladan Afg'onistondagi urushlar va siyosiy beqarorliklar. Yozuvchi o'zining hayotiy tajribalaridan ilhomlanib, o'z asarlarida insoniyatning zaifliklarini va jamiyatdagi murakkabliklarni tasvirlagan. Naviso, o'zi tajriba qilib ko'rgan urush, muhojirlik va boshqa ijtimoiy noxushliklar haqida yozgan. Afg'onistonning ichki va tashqi muammolari, fuqarolar urushi va uning ta'siri xalqni ajratgan bir davrda yozuvchi faoliyat ko'rsatgan. Uning asarlari Afg'onistonning o'ta noaniq va noqulay sharoitlarida yaratilgan bo'lib, ular ko'pincha insonning ichki kurashlari, jamiyatdagi ijtimoiy adolatsizliklar va hayotning tasodifiyligini tasvirlaydi. Xolid Navisoning o'ziga xos yozish uslubi har bir asarida o'zini ko'rsatadi, bunda ko'proq kichik hikoyalar orqali katta falsafiy masalalar yoritiladi. Uning hikoyalarida sodda va qisqa jumlar orqali murakkab va chuqur falsafiy xulosalar beriladi. Bu uslub orqali Naviso jamiyatdagi muammolarni, insoniyatning zaifliklarini va insonning turli shakllardagi kurashini yoritishga intiladi. Adib asarlari soddaligi, tabiiyligi va chuqur falsafasi bilan ajralib turadi. Uning yozish uslubi nozik, oddiy va hayotiy. Bu uslubda sodda va qisqa jumlar orqali katta falsafiy xulosalar chiqarish mumkin. Navisoning asarlarida ko'pincha insonning ichki dunyosi va jamiyatdagi munosabatlar orasidagi ziddiyatlar yoritiladi. Yozuvchi o'z asarlarida ko'p jihatdan ijtimoiy adolatsizliklarni, insoniy munosabatlarni va hayotning murakkab tomonlarini ta'riflaydi. Uning ijodi zamonaviy afsonaviy asarlarning bir qismiga kiradi. Uning asarlarida yuqori darajadagi ma'naviyat, tabiiy va musaffo tasvirlar bilan birga, inson ruhiyatining murakkabliklari tasvirlanadi. Xolid Navisoning asarlarida jamiyatdagi tengsizlik, ijtimoiy adolatsizliklar va insonning qismati asosiy mavzularni tashkil qiladi. Ularning har birida o'sha davrda mavjud bo'lgan qat'iy to'siqlarni, insonning o'z taqdiriga bo'lgan munosabatini ko'rish mumkin. Uning asarlarini birgalikda o'qish orqali o'quvchi o'zining hayoti va jamiyatdagi o'rniga yangi bir nuqtai nazar bilan qarashga majbur bo'ladi. Naviso yozgan asarlarida o'zi yashagan jamiyatni va uning shart-sharoitlarini tasvirlashga katta e'tibor bergan. Asarlarning tahlilida ko'pincha kishilarning o'zlari bilan hamda jamiyat bilan bo'lgan bog'liqligi ko'rsatiladi. Biz tanlab olgan "Qizil va Oq" (سرخ و سپید) hikoyasi mening talqinimga ko'ra zarbulmasal shaklida yozilgan.

Asar 8 ta bo'limdan iborat bo'lib, har bo'limda kabutar bir noxushlik qurboniga aylandi. Asar mamlakat Prezidentining oppoq kabutarni ozod qilishi bilan boshlanadi. Asar davomida kabutar bir necha bor o'lim bilan yuzma-yuz keladi. Kabutarning matonati taqdirning barcha zarbalariga dosh berish jarayonida yanada kuchga to'ladi, lekin u o'zi bilan doimo kurashib boradi. Uni jamiyatda hech kim tushunmaydi, hatto, o'zi kabi deb bilgan bir to'da kabutarlar ham asli tashqi ko'rinish jihatidangina unga o'xshashini anglab yetadi. Asar so'ngi esa shunchaki butun hissiyotlaringizni

shamol bulutni xohlagan tomongan uchirib ketganidek, qalbingizni o‘zingiz ham bilmagan qutblariga olib ketadi

كېوتەر سېپىد با دستان رېيس جمهور به هوا پرتاب شد. كېوتەر پريد، رېيس جمهور نيز با پنجه هاى پاهایش ايستاد؛ مثل اين كه ميل داشت با كېوتەر به پرواز درآيد. صدای هوهوی بالهای كېوتەر در میان غریو شادی و ابراز احساسات مردم در استديوم بزرگ محو شد.

رېيس جمهور به حاضرین گفت:

"امروز اين كېوتەر را از برای شما رها میکنم. اين كېوتەر پیام آور صلح است هر جا كه برود با خود صلح را ميبرد"

Oq kabutar prezidentning qo‘llari bilan osmonga uchirildi. Kaptar uchib ketdi, prezident esa go‘yo u ham kaptar bilan birga parvoz qilishni istayotgandek oyoq uchida tik turdi. Kaptarning qanot qoqish ovozi katta stadionda xalqning shodiyona qichqiriqlari va jo‘shqin hissiyotlari orasida g‘oyib bo‘ldi.

Prezident yig‘ilganlarga dedi:

"Bugun men bu kaptarni sizlar uchun ozod qilaman. Bu kabutar – tinchlik elchisi. U qayerga bormasin, o‘zi bilan tinchlikni olib boradi."

Lekin asar davomida bu tamoman aksi o‘laroq kabutar qayerg bormasin faqat falokatga yo‘liqadi.

«!يکي از تماشاچيان به طرف نامعلومی صدا زد «:سنگ نداری؟» کسی از روی علاقه جواب داد:»باش

« و با پسمانده سیبی كېوتەر را نشانه گرفت «. كیش كیش، چشم سفید پدر لعنت

.كېوتەر حالتی گرفت كه گویا دیگر پريد نیست؛ اما لحظاتی منتظر ماند.

Shu payt tomoshabinlardan biri noma'lum tomonga qarab baqirdi:

— Toshing yo‘qmi?

Kimdir qiziqish bilan javob qaytardi:

— Bor!

Va olma po‘chog‘ini kaptarga qarab uloqtirdi.

— Kish-kish, ko‘zlari oppoq la’nati!

Kaptar go‘yo endi uchishni istamagandek bir holatga keldi, biroq bir necha lahza kutib turdi.

Bu yerda yozuvchi kabutar timsolida o‘zini ko‘rsatmoqchidek, ya’ni qayta dunyoga kelishi (ozod qilinishi) bir xushxabar-u, lekin jamiyat uni bunday tarzda qabul qilmaydi. Ikkinchi bo‘lim esa kabutarning o‘tmishini yodga olishi bilan boshlanadi. U shu vaqtga qadr ham hayotda biror-bir ro‘shnolik ko‘rmasdan yashaydi. U Bobo Eshon kabutarchining do‘konigaqanda kelib qolgani, qachon kelib qolganini eslashga urinadi, lekin hargalgidek eslay olmaydi. Kabutarning ko‘k yuzida bir tekista ucha olmasligini yozuvchi “Go‘yo u haqiqatdan ham tinchlik va osoyishtalik yukini qanotlari bilan ko‘tarib, uni osmonda yoyib yurgandek edi.” deya chiroyli o‘xshatish qiladi. Kabutar esa aslida ochlikdan toliqqan edi, u bir uy tomiga qo‘nishga ahd qiladi va ikkichi baxtsizlik aynan shu uy hovlisida yuz beradi.

از درون درخت ها صدای جوانی برخاست: «اوه، چه کفتر سفیدی «!صدای قدم هایی شنیده شد کبوتر مطمئن شد که دیگر کسی در پی آزارش نیست چند بار به دانه ها نک زد که یک بار صدایی که حکم مرگ را داشت از نزدیکی برخاست کبوتر پرید و ریزه های شیشه پنجره با شدت به هر طرف پاشان شدند. کبوتر گریخت و هیچ ندانست که این شیشه با شلیک سنگ گولک آن جوان که پنهانی برگشته بود شکست

Shu payt daraxtlar orasidan bir yosh yigitning hayratli ovozi eshitildi:

— Oh, naqadar oppoq kabutar!

Qadam tovushlari eshitildi. Kabutar endi hech kim unga ozor bermasligiga ishondi. U bir necha bor don cho‘qiladi. Ammo shu payt qulog‘i ostida o‘limdek dahshatli bir ovoz yangradi. Kabutar shoshib uchib ketdi, va shu zahoti deraza oynasining mayda siniqlari har tomonga sachrab ketdi. U qo‘rqib qochdi, ammo u bu oyna aynan o‘sha yigitning yashirinch qaytib kelib, uloqtirgan toshidan sinib ketganini bilmasdi.

Adib bu yerda bolakayning sof xilqati jamiyat qusurlari sabab ayniganini aytmoqchi, ya‘ni u kabutarni ko‘rib qanchalik xursand bo‘lmasin, noiloj, u jamiyat tengsizliklari qurboniga aylanganligi uchun ichida o‘tib borayotgan chirkinlik daraxti uning sof tabiatiga o‘zining soyasini solmasdan qolmadi. Asarning uchinchi qismi ham kabutarning qora o‘tmishi Bobo Eshon do‘koni tasviri bilan boshlanadi. U do‘kondagi eng yoshi katta kabutarning, Ovchi, unga qilgan taziylarini eslab undan qutilganiga hursand bo‘lib yana ko‘kka parvoz qilmoqchi bo‘ldi-yu, quvvatsizligi tufayli qo‘ngani yana o‘sha zulm to‘la yerga qaytishga majbur bo‘ldi. U quyosh issig‘ida turgan bir temirga kelib qo‘nadi. Yozuvchi shu yerda o‘zining nozik dididan foydalanib qahramonimizni yana xatar bilan yuzlashtiradi.

آتش مهیبی در نزدیکی پدید آمد. همراه با آن صدایی برخاست که گوش دنیا را ترکاند. کبوتر مثل پارچه کاغذی که باد برداردش به دیواری خورد. کمی بعد با تمام قوت برخاست و روی شاخه خشکی نشست. از ترس می لرزید. چون مغز کوچکی داشت ندانست که در واقع به روی میله تانکی نشسته است. درون این تانک سرباز بی اهمیتی نشسته بود که زیاد هم عاصی و کفری بود. او به طرف مخالفین مسلح دولت که در آن دور دست ها کمین کرده بودند، آتش گشوده بود.

Uning yaqinida dahshatli bir olov alanga oldi. Shu bilan birga, dunyoni titratgan dahshatli portlash ovozi yangradi. Shamolga ilashib ketgan qog‘oz parchasi kabi kaptar devorga urildi. Bir ozdan so‘ng, u barcha kuchini yig‘ib, o‘zini tikladi va qurigan bir shoxga qo‘ndi. Qo‘rquvdan titrardi. Uning miyasi kichik bo‘lgani uchun aslida tankning ustiga qo‘nganini tushunmadi. Tank ichida esa beparvo, ammo g‘azabga to‘la bir askar o‘tirardi. U uzoqroqda pistirmaga yotgan qurolli muxolif kuchlarga qarata o‘q uzayotgan edi...

Adib bu yerda kabutar misolida xalqning ozodligini tasvirlamoqchi bo‘lgan. Xalq jabr-u sitamlardan qutiliboq, yuksaklarga harakatdan to‘xtamadi, lekin xalqning qorni och, yupun edi. U o‘zini asrash uchun rivojlanish yo‘lidan to‘xtamadi, shunchaki keyinga surdi. Lekin non topish maqsadida qilgan harakatlarning barchasi qaysidir davlarning boshqa bir davlatga o‘q uzayotgan tankning naq ustiga boshlab keldi. Bu, albatta, taqdirning ishi, lekin mustaqillikka erishgan yosh

davlatning bunga uncha ham aqlli yetmasdi. Bo‘lib ham, adolatsizlik adolat deb yuritiladigan siyosat bozorida uning o‘lchovlari manfaatdor mamalakatlar tomonidan “to‘g‘rilanishi”, uni mana shunday o‘t ochishlar girdobiga uloqtiradi. Asarning endingi qismida yozuvshi kabutar timsolida yana o‘z taqdirini yoritmoqqa kirishadi. U bu yer(jangoh)dan tezlik bilan uchmoqqa kirishadi. Uning tezligi tankning snaryadidan-da tez ekanligi asarda keltirilgan. U shimolga ketar ekan, yo‘lda o‘zining taqdiridoshlarini topadi. Ular bilan qanchadan-qancha shaharlar ustidan birgalikda uchib o‘tishadi ammo bir joyga kelganga u birga uchib kelayotgan hamrohlari yo‘qligini ko‘radi. U uchishini shu yerda to‘xtatib pastlay boshlaydi va juda katta 2 ta bepoyon bug‘doyzor oralab uchib o‘tadi va 2 bug‘doyzor orasidagi bo‘sh joyga qo‘nadi. Xolid Naviso shu yerda bug‘doyzorni “xuddi insonlar orzu qiladigan Jannat”ga o‘xshatish orqali kabutar ham non topish ilinjida boshqa yurtlarga yaxshi hayot tarzini izlab ketayotgan insonlar taqdiriniyoritmoqchidek, go‘yo. Lekin u bu yer donidan yeyishi bilan birgalikda “bir iflos ko‘lmak”dan suv ichish majburiyatiga ham bo‘ysunmog‘i lozimligini keltirar ekan, balki taqdirida o‘zi xohlab-xohlamay qilgan ayb-u kamchiliklarini tan olgandir. Kabutar don yerkan, bug‘doyzor ichi o‘q gilzalari va hali to‘laligicha qurib bitmagan, zamin uzra bir dog‘ kabi qotib, uni bulg‘ab turgan qon tomchilariga to‘laligi kabutarning hech e‘tiborini tortmaganini keltirishi va buni o‘quvchi aybga yo‘ymasligi uchun kabutarning juda ham ochligini eslatib o‘tadi. Xo‘sh keyin nima bo‘ldi deyarsiz. Yana bir taqdir zarbasi, albatta. U xuddi hayoliy makonga tushib qolgandek his qilardi o‘zini. Bir muddat o‘tgandan so‘ng u mizg‘ish uchun pulemyotlar orqali vayronaga aylantirilgan kulbaga kelib qo‘nadi va to‘satdan ustida uchib yurgan ajal sharpasini sezib qoladi.

بعد از آن شکل سایه بر روی زمین واضح تر شد. کبوتر خواه ناخواه متوجه شد که سایه بزرگ و بزرگتر میشود. خصوصاً که این سایه بی صدا و مرموز به سویی نزدیک میشد. کبوتر صلح همان گونه که بالک میزد به بالا دید و به قدرت خدا بازی را دید که تا آن وقت ندیده بود. باز چرخ های افسون کننده یی بر سر کبوتر میزد، اما کبوتر به گونه الهام شده یی دوباره رخ گشتاند و به طرف درختان خواب زده گریخت. قلب کوچکش میزد. باز قهوه بی رنگی بود که خیلی گرسنه به نظر می رسید فکر می شد اگر گوساله یی را می یافت بلندش میکرد. حمله اش وقتی آغاز شد که قطعاً دانست که کبوتر هوشیار و گریز پاست. باز که از فرط گرسنگی کور شده بود مثل اجل بر سر کبوتر فرود آمد؛ اما کبوتر در هوا جستی زد و توانست با سرعت درون یک درخت در رود. باز خشمگین هفت بار بر فراز درخت غوطه زد و بالاخره مثل این که دچار اشتباه باصره شده باشد از آنجا دور شد و ندانست که در میان درختان کبوتر صلح کوچکی مخفیست که قلبش به شدت می زند.

Keyin bu soyaning shakli yerda yanada aniqroq ko‘rina boshladi. Kabutar beixtiyor soya tobora kattalashib borayotganini tushundi. Xususan, bu sirli va jimjit soya unga sekin-asta yaqinlashayotgan edi. Tinchlik kabutari qanot qoqib osmonga boqdi va ilk bor, Xudoning qudrati bilan, u o‘zi ilgari hech qachon uchratmagan bir lochinni ko‘rdi! Lochin sehrli aylana yasab, kaptar uzra qanot qoqardi. Ammo kabutar qandaydir ilohiy ilhom bilan yuzini burib, chuqur uyqudagi daraxtlar tomon qochdi. Uning yuragi shiddat bilan urardi. Bu jigarrang lochin nihoyatda och edi. U, hatto, bir buzoq uchrasa, uni ham osongina ko‘tarib ketishga qodir edi. Uning hujumi aynan o‘sha lahzada boshlandi—lochin aniq bildiki, bu kabutar hushyor va qochishga juda epchil edi. Ochlikdan

ko‘zi ko‘r bo‘lib qolgan lochin xuddi ajaldek kabutarning ustiga tashlandi. Ammo kabutar havoda mohirona sakrab, o‘zini chaqqonlik bilan bir daraxt shoxlari orasiga urib qochdi. Lochin g‘azab bilan daraxt atrofida yetti marta aylandi. Keyin, xuddi ko‘zi adashgandek, u bu yerdan uzoqlashdi. U shoxlar orasida yuragi qattiq urayotgan titroq ichidagi bir kichkina tinchlik kabutari yashirib yotganini bilmasdi.

Zamon hatto “Jannat”da ham kabutarga o‘zining yomonliklarini ravo ko‘radigan darajada ekanligini adib ushbu voqealar orqali bayon qiladi. Albatta, yashash kurashdan iborat, lekin kurash ichida yashamoq ne? Bu yerdagi lochin obrazi ham aslida ko‘chma ma’no kasb etadi - o‘sha yurtdagi adibning “hamkasb”lari(umumiy ma’noda qalam tebratuvchilar). Ular kabutar bu yerda uning rizqini yeb yurganidan unga hujm qilmadi, balki uni o‘zining nishoni ostiga oldi. Har yerning o‘z egalari bor bo‘lganligi uchun kabutar ham o‘zi uchun makon izlab yana yo‘lga chiqadi. Asarning 5-qismida kabutarni yana yangi xatarlar kutib turardi. U o‘ziga yangi makon topshga kirishadi va barcha sayyoh qushlar uchun qarorgoh vazifasini bajaradigan eski bir minorali binoni ko‘rib qoladi. Uni tekshirish maqsadida avval derazasiga qo‘nadi va u yerda bir musichani ko‘rib ko‘ngli xotirjam bo‘ladi. Bino ichiga kirib ravoqlarning biriga qo‘nadi va qanotlariga orom beradi. Barcha noxushliklar tunda boshlanadi.

گره سیاهی با یک جست خود را از روی بام به روی رف پنجره انداخت و صدایی کشید که ترس در دل کبوتر منفجر شد. کبوترک فکر کرد که دیگر آفتی جاویدان تر از مرگ به سراغش آمده است با یک پرش ناآگاهانه موفق شد که جا عوض کند و به گونه معجزه آسایی بپرد و جلو پنجره دیگر بنشیند. گربه در پنجره روبه رو ماند؛ اما چنان با اشتیاق و شهوت به کبوتر نگاه میکرد و غر میزد که نزدیک بود کبوتر زهره ترک شود؛ اما چاره بی نبود. شب سنگین و تهدید آمیزی بود. گربه تمام شب بی خوابی کشید و کبوتر هم از رف یک پنجره به دیگری می نشست.

Qora mushuk bir sakrashda tomdan deraza ravog‘iga otilib tushdi va shunday xirilladi—bu ovoz kaptarning yuragini portlatgandek bo‘ldi. Bechora kaptar endi o‘limdan ham abadiyroq bir balo uni ta‘qib qilayotganini his qildi. O‘zini bilmay bir sakrash qildi va mo‘jizaviy tarzda boshqa joyga ko‘chib, boshqa deraza oldiga qo‘ndi. Mushuk esa qarama-qarshi derazada qotib qoldi—ammo shunday ishtiyoq va shavq bilan kaptarga tikilardi, shunday xirillab g‘udrardi-ki, go‘yo kaptarning yuragi yorilib ketishi hech gap emas edi. Ammo boshqa iloji yo‘q edi. Bu og‘ir va tahlikali tun edi. Mushuk butun tun bedor qoldi, kabutar esa hadiksirab, bir derazadan boshqasiga sakrab o‘tib chiqardi.

Kun yorishishi bilan mushukdan nom-nishon qolmaydi. U tunni o‘tkazgan bino bir cholg‘a tegishli bo‘lib, cholning zumrasha bir nabirasi bore di. Cholning nafas olishi qiyin edi. U bino bomdod namozidan so‘ng tasbeh aytayotib bino eshigini ochadi va behostdan nabirasi uchun sovg‘a borligini ko‘radi.

عبدالله بیا که چیزی را نشانت بدهم . «جوانی از عقب شانه پیرمرد گردن کشید . ریش زبری داشت . با اظهار تعجبی»  
 که از گیهای پیرمرد پیشی گرفت گفت: «اوه چه کبوتر سفیدی . «پیرمرد گفت : «آغا صاحب گفت که خوردن گوشت کفتر برای  
 «نفس تنگی ام بسیار فایده دارد» . جوان پاسخ داد: «بگیرمش؟» . پیرمرد گفت : «می توانی؟»

کبوتر مثل تصویر میان یک قاب آرام به آنها مینگریست و خبر نداشت که فاصله کوتاه پنجره ها را چیزی خواهد در  
 نوردید که دنیا را کن فیکون خواهد کرد . جوان ماشه تفنگ را کشید ت...تف !!!کبوتر جست زد و گریخت کمان شد و روی بام  
 نشست . فکر میشد که احساس میکرد یک بالش پرید و بار سنگینی ازش آویخت . ساچمه دو پر نوک بالش را پرانده بود؛ اما کبوتر  
 هنوز می توانست که بپرد .

— Abdulloh, kel, senga bir narsani ko'rsataman ! Orqadan bir yigit cholning yelkasidan  
 mo'raladi Uning dag'al soqoli bor edi. Chol so'z aytishga ulgurmay, yigit hayratini yashira olmay  
 dedi: — Oh, qanday oppoq kaptar! Chol dedi: — A'lohazrat Agha aytdiki, kaptar go'shti nafas  
 qisishimga juda foydali ekan. Yigit javob berdi: — Ushlab olaymi? Chol so'radi: — Qolingdan  
 keladimi?.....

Qafas ichidagi kabutar ularni mahzun ko'zlari bilan kuzatardi. U derazalar orasidagi shu tor  
 masofani birozdan keyin nima kesib o'tishini bilmasdi. U bilmasdi, biroq dunyoni ostin-ustun  
 qiladigan narsa yaqinlashayotgan edi. O'q uzildi. Yigit miltiqning tepkisini tortdi — tuf! Kabutar  
 irg'ib havoga otilganicha qochdi, yoydek egilib, tom ustiga qo'ndi. Go'yo u nimanidir his qildi—  
 bittagina pati uchib ketdi, ammo birdan gavdasiga qandaydir og'ir yuk osildi. O'q uning qanotining  
 uchidagi ikkita patni yulib ketgandi. Lekin... u hanuz uchishi mumkin edi.

Ushbu qismda adib chol va nabira birgalikda tinchlikni yo'q qilmoqchi degan fikrni ilgari  
 surgan. Ya'ni, bu avloddan-avlodga o'tib kelayotgan toj-u taxt egalari o'zlarining “sog'liklari(qadah  
 urishtirib sog'lik tilagan vaziyat - aysh-ishrat)” uchun xalqning tinchligini batamom yo'q qilishgacha  
 borishyapdilar degan g'oya mavjuddek tuyuladi. Qolgan boblarda ham kabutarning boshiga bundan  
 yomonroq kunlar keladi. Asarning oxirgi bobi esa odamni uyg'onishga majbur qiladi go'yo. Bu  
 bobda kabutar timsoli Afg'oniston zamini nega bunday holatga kelgani ochiq-oydin bayon qilingan.  
 Kabutar asar so'ngida bir daraxtga kelib qo'nim topadi, lekin kutilmaganda uzoqda 2 askar paydo  
 bo'ladi. Ularning kabutar haqidagi garovlari:

مرد تفنگدار همان طور که میرفت به مرد همراهش گفت: «آن را می بینی؟»

!.همراهش لباس پلنگی مخصوص جبهه خود را تکاند و بی اعتنا گفت: «ها

«بزنمش؟»

«!نمی توانی»

دومی متهیج جواب داد

"چند شرط میگذارم؟"

" .یک قوطی سگرت

" " اوه !خوب بیا و ببین؛ اما اگر قان کشیدی و نادادی شکمت را سرب پر میکنم

بعد به زمین زانو زد جری و جوک تفنگ را به هم میزان نمود و قنداق را به شانه چسپاند کبوتر ظاهراً میخواست که بپرد و به طرف آن دو برود؛ اما صدای گلوله برخاست کبوتر چشم های سرخ رنگش را به طرف اشیای نامریی گرفته بود. یک بار شاخه زیر پنجالش شکست. بی آن که خودش بخواد سه چار بار معلق خورد و همان طور سیخ آمد و تپ به زمین خورد. بال سپیدش سرخ شد. سرباز قوطی سگرت را برد؛ اما خدا میداند چه کرد که کبوتر زخمی را به شهر رساند و فروخت.

چند روزی نگذشت که باز کبوتر صلح با «زاغ» نک شکسته و کبوتران دیگر در پشت جال دکان بابیه» ایشان افتاد

Qurollangan odam yurishda davom etarkan, yonidagi sherigiga dedi:

-Uni ko'ryapsanmi?

Uning sherigi jang maydoniga xos yo'lbars naqshli kiyimini qoqib, beparvo ohangda dedi:

"Ha!" "Uraymi?"

"Qo'lingdan kelmaydi!" – ikkinchisi hayajon bilan javob berdi.

"Qancha garov tikasan?"

"Bitta quti sigaret.

"Oh, yaxshi, ko'ramiz. Lekin agar qon chiqarib ham sigaretni bermasang, qorningni o'q bilan to'ldiraman!" Keyin u yerga tizzalab o'tirdi, shoshilmay miltiqning nishon va nayini rosladi va qurolni yelkasiga mahkam qadaydi. Tinchlik kaptari go'yo uchib, o'sha ikki odam tomon borishni istayotgandek edi. Ammo shu payt o'q ovozi yangradi. Kaptar qizg'ish ko'zlarini ko'rinmas narsalar tomon tikdi. Shu payt uning panjalari ostidagi shox bir zumda sinib ketdi. U o'zi istamasdan uch-to'rt marta ag'darildi va to'g'ri pastga qulab tushdi. Uning oppoq qanotlari qonga belandi. Askar garov yutib, sigaret qutisini oldi. Ammo keyin nima bo'lgani noma'lum—qandaydir yo'l bilan u yarador kaptarni shaharga olib borib, uni sotib yubordi. Oradan bir necha kun o'tmay, Tinchlik kaptari yana "tumshug'i singan zog" va boshqa kaptarlar bilan Bobo Xonning do'koni ortidagi qafasga tushdi.

Anglaganingizdek, bu yerda Rossiya va AQSH - 2 askar va qurbon bo'lmish kabutar – Afg'oniston.

Adib asarining so'ngida afg'on zaminida yashovchi bu xalq taqdirning har qanday zarbasiga chidaydi, bu millat haqiqat singari egilishi mumkin, bukilishi mumkin, o'z qoniga belanishi mumkin, lek hech qachon sindirib bo'lmaydi degan asosli mafkurasini ochiq lab bergan!

Xulosa qilib aytadigan bo'sak, Xolid Naviso oddiy bir kabutar orqali xalqning, yurtning va o'zining dardlarini zarbulmasal ko'rinishida bayon qilgan. Tan olish kerakki, bu zamin qanchadan-qancha azob-u uqubatlarga giriftor bo'lmadi. Xalqning mafkurasini tiriklay bog'izlamoqchi bo'lgan har xil tajovuzkor mamlakatlar o'z yurtini yovlardan himoya qilish yo'lida so'nggi tomchi qonini ham yurti uchun to'kkan bahodirlar qonidan vujudga kelgan ulkan "Ozodlik to'lqini"da cho'kib , mag'lubiyatga uchradilar. Ayni paytda esa, bu zamin dunyo minbarlaridan o'ziga joy hozirlamoqda. Men umid qilamanki, bu minbardan, albatta, tinchlik kabutarlari uchirilajak!

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Inomxojayev R. Afg'oniston dariyazabon adabiyoti. (XIX asr oxiri – XX asr) Ikkinchi qismi, –T.: 2018.
2. Kabirova N.K. Rahnavard Zaryob hikoyalarining poetikasi. Monografiya. Toshkent-2021.
3. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. –T.: Akademnashr. 2018.
4. Асоев Х. Развитие жанров в прозе на дари. –Душанбе, «Ирфон», 1987.
5. Герасимова А. Судьбы афганского рассказа 60-х годов // Народы Азии и Африки, 1974.
6. ..ادبيات مقاومت در افغانستان، دانشنامه ادب فارسی، تهران، ۱۳۸۱. ص. ۶۳-۷۰.
7. Xolid Naviso. “Taqlid yo‘li va qismat jarligi” hikoyalar to‘plami. Kobul. 2016.